



## ATOQLI O'ZBEK SAN'ATKORLARI VA MUSIQIY JAMOALARI

**ABSATOVA MUNISA ABDUSALOM QIZI**

*Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti*

*Musiqiy ta'lim yo'nalishi 23-01 guruh talabasi*

**Ilmiy rahbar: M.Xo'jageldiyeva**

*Musiqqa mahorati va madaniyati kafedراسi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada atoqli o'zbek san'atkorlari shuningdek musiqiy jamoalarning o'zbek musiqqa san'atidagi roli tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston musiqasi, mustaqillik, maqom, milliy meros, bastakorlik, ijrochilik, ansambl, orkestr, madaniy taraqqiyot.*

**Abstract:** *The article will analyze the role of renowned Uzbek artists as well as musical ensembles in the development of Uzbek music art.*

**Key words:** *Uzbek music, independence, maqom, national heritage, composition, performance, ensemble, orchestra, cultural development.*

**KIRISH**

O'zbekiston o'z davlat Mustaqilligiga erishgan kundan boshlab uning musiqqa san'ati rivojida katta o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Bunda, eng avvalo, buyuk ajdodlarimizdan bebaho ma'naviy meros qolgan mumtoz musiqqa (maqom, ashula, katta ashula, suvora va b.) asarlarini xalqimiz orasida keng targ'ib qilish ishlari juda muhim o'rin tutmoqda. Albatta, bu kabi ijodiy ishlarni amalga oshirishda atoqli san'atkor-ijrochilarning xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, otaxon san'atkorlardan — O'zbekiston xalq artisti Turg'un Alimatov maqomlarda mujassam ma'naviy go'zalliklarni tanbur-u satoda, g'ijjak-u dutorda badiiy "jonlantirib", xalqimiz olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. O'zbekiston xalq artistlari G'anijon Toshmatov, G'ulomjon Hojiqulov, Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov kabi mahoratli sozandalar ham o'zlarining betakror g'ijjak nolalari, o'ziga xos ijro sayqallari bilan mumtoz musiqqa hamda zamondosh bastakorlarning asarlarini "bezak"lashga musharraf bo'ldilar.



Shuningdek, O‘zbekiston xalq hofizlari Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliev, Ochilxon Otaxonov, Muhammadjon Karimov, Quvondiq Iskandarov, Hasan Rajabiy, Mahmud Tojiboyev, O‘zbekiston xalq artistlari Otajon Xudoyshukur, Munojot Yo‘lchiyeva va Maryam Sattorovalari maqom ashula yo‘llarini, ohanglarini yevropa hamda bastakorlar asarlariga go‘zal tarzda ijro etib, yuksaltirishdi.

Ayni paytda yurtimizda musiqa va xalq musiqa ijodiyoti namoyandalarining, mumtoz maktab ustozlari maqomchi olimlarimizning ilmiy, amaliy ishlari, Xorazm viloyat televideniyesi huzuridagi Hojixon Boltayev nomidagi “Maqom” ansambli, O‘ztelekompaniyasi huzuridagi “Dutorchilar” ansambli singari ijodiy jamoalarning ham alohida o‘rni bor.

Shu bilan birga hozirgi davr O‘zbekiston musiqa san‘atida asosan kompozitorlik ijodiyoti asarlarini yangi turda ijro etishga mo‘ljallangan jamoalar faoliyati ham ko‘zga tashlanadi. Bu borada ayniqsa “Sug‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri, O‘ztelekompaniyasi kamer orkestri, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri, Doni Zokirov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestri va To‘xtasin Jalilov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestrining konsert chiqishlari e‘tiborni bo‘lmoqda.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘zbekiston musiqa san‘ati asrlar davomida shakllangan chuqur an‘analarga ega. Mustaqillik yillarida bu an‘analar ilmiy asosda tiklanib, professional ijrochilik maktablari rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, Turg‘un Alimatov, G‘anijon Toshmatov, G‘ulomjon Hojiqulov, O‘lmas Rasulov kabi atoqli san‘atkorlar maqom san‘atini tanbur, dutor, g‘ijjak kabi cholg‘ular orqali jonlantirdilar.

Milliy hofizlik maktabining yetuk namoyandalari – Otajon Xudoyshukur, Munojot Yo‘lchiyeva, Orifxon Hotamov kabi ijodkorlar maqom, katta ashula va folklor musiqasini o‘ziga xos ijro uslubida keng ommaga yetkazdilar. Ularning faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabi vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ko‘plab yangi ijodiy ansambl va orkestrlar tashkil etildi. “Maqom”, “Dutorchilar”, “Sug‘diyona” xalq cholg‘ulari ansambli, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri, kamer orkestrlar faoliyati musiqiy ijodiyotda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu jamoalar nafaqat mahalliy, balki xalqaro



miqyosda ham yurtimiz musiqa san'atini namoyon etmoqda.

Kompozitorlik maktabining rivojlanishi ham mustaqillik davrining muhim natijalaridan biridir. Yosh bastakorlarning asarlari zamonaviy texnika va an'anaviy ohanglarni uyg'unlashtirgan holda, milliy musiqaning yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda. O'zbekistonning mustaqilligi tufayli Badiiy havaskorlikda ham yangi davr boshlandi. Tarixga, ma'naviy merosga, xalq ijodiyotiga e'tiborning kuchayishi o'z navbatida Badiiy havaskorlik rivojiga ham turtki berdi. Ayniqsa, milliy bayram, navro'zning tiklanishi va mamlakat miqyosida o'tkazilishi natijasida navro'z bilan bog'liq o'yinlar, tomoshalar, marosimlar tiklandi. Bunda malakali san'atkorlar bilan bir qatorda Badiiy havaskorlik jamoalari, xalq ijodkorlarining xizmatlari katta bo'ldi. Bu davrda estrada havaskorligi taraqqiy topdi. Xalq o'yinlarini tiklash va yanada rivojlantirishga qaratilgan bayramlarni o'tkazish an'anaviy tus oldi. Folklor va etnografiya, raqs san'ati, dorbozlik, qo'g'irchoq teatri, askiya, qiziqchilik va masharabozlik yo'nalishlaridagi jamoalarning faoliyati izchil va samarali bo'ldi. Bolalarning "Tomosha" nomli o'ziga xos musiqali teatri maydonga keldi. Ayniqsa, 80-yillarda inqirozga uchray boshlagan Badiiy havaskorlik teatri qaddini rostdashga kirishdi. 1999-yildan o'tkazila boshlagan "Nihol" teatr san'ati havaskorligi respublika ko'riktanlovi natijalari shundan dalolatdir.

Har yili keng nishonlanadigan Mustaqillik, Navro'z bayramlarining katta tomoshalari dasturida Badiiy havaskorlik vakillarining ishtiroki mazkur san'at yo'nalishini yanada rivojlanishida katta turtki bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida bir qancha musiqa jamoalari, ashula va raqs ansambllari, drama va havaskorlik to'garaklari mavjud. Bu jamoalarga (eng yirik klublarda), asosan, professional aktyor, rejissyor, musiqachi, baletmeyster va boshqa rahbarlik qiladi. Ularning repertuarlari o'zbek va jahon xalqlari dramaturglarining asarlari, qo'shiq va raqslaridan iborat. Musiqa, xor, raqs Badiiy havaskorlik ida erishilgan katta yutuqlar turli ko'rik va tanlovlar, festivallarda namoyish etib boriladi. O'zbekistonda turli millat vakillarining Badiiy havaskorlik guruhdari (mas, koreys, qozoq, rus va boshqalar) mavjud. O'zbekistondagi professional san'at jamoalari (teatrlar, ashula,



raqs ansambllari va boshqalar) o'z safini ko'p hollarda havaskorlar hisobiga to'ldirib boradi.

### **XULOSA**

Mustaqillik yillarida O'zbekiston musiqa san'ati taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgani shubhasiz. Milliy merosning asliyatini saqlagan holda, zamonaviy musiqiy izlanishlar, ijodkorlar, ansambl va orkestrlarning faoliyati tufayli xalqimizning madaniy hayoti yuksalmokda. Musiqa nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qilayotgan kuchli omilga aylandi. Atoqli o'zbek san'atkorlarining musiqiy merosi keng, boy, va murakkabdir. Aynan hozirgi kungacha sahnalarda ijro etib kelinmoqda.

### **ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. "O'zbekiston musiqa merosi" – O'zbekiston davlat konservatoriyasi nashri, 2015.
3. Sharipov M. "Maqom san'ati va uning rivojlanish bosqichlari". – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2020.
4. Alimov, B. (2004). O'zbekiston xalq musiqa asboblari. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.
5. Askarov, R. (2009). Markaziy Osiyo musiqa madaniyati. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Karimov, A. (2011). O'zbek musiqa san'ati: Tarix va rivojlanish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.